



XALQ DEPUTATLARI NAVBAHOR TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 3-avgust

VII-26-93-5-73-K/26

Navbahor tumani

Navbahor tumani obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan markaziy ko'chalar bo'yida joylashgan tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnomalar asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatlari uchun tariflarni tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi "Mahalliy budgetlar va budget tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budget intizomini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-387-son qarorining 8-bandiga muvofiq, 2026-yil 1-yanvardan boshlab obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan tuman (shahar) markaziy ko'chalari bo'yidagi tadbirkorlik subyektlariga chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatlarini shartnoma asosida ko'rsatishga ruxsat berilganligi, mazkur xizmatlar uchun tariflar xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari tomonidan tasdiqlanishi belgilangan.

Shunga ko'ra, tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari L.Jamilovning 2026-yil 2-iyuldagi 01-07/302-sonli xati hamda xalq deputatlari Navbahor tuman Kengashining mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohatlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyaning 2026-yil 3-iyuldagi DKQ 03-01/70-26-sonli qarorini inobatga olib O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 24-moddasiga asosan, xalq deputatlari Navbahor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Navbahor tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko'chalari bo'yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko'rsatish bo'yicha to'lov tariflari yuzasidan tuman Obodonlashtirish

boshqarmasi boshlig'i birinchi o'rinbosari L.Jamilovning hisoboti qoniqarli deb topilsin.

2. Tumanda maishiy chiqindilar, agrotexnik ishlov berishdan hosil bo'ladigan chiqindilar (daraxt va bo'ta shox-shabballai, barglari) hamda maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun to'lov narxlari ilovaga muvofiq ma'qullanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (M.Jumaboyev)ga tasdiqlangan tariflarni amaliyotga to'liq va o'z vaqtida joriy etilishini ta'minlash, tuman Obodonlashtirish boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya bo'limi hamda boshqa manfaatdor tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, barcha tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatishda yagona yondashuv va tartib-intizomni ta'minlash tavsiya etilsin.

4. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari (L.Jamilov)ga markaziy ko'chalarda joylashgan tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnomalar asosida chiqindilarni o'z vaqtida va sifatli olib chiqish, hududlarni sanitariya va ekologik talablarga muvofiq obodonlashtirish, belgilangan tariflar asosida xizmatlarni uzluksiz tashkil etish, shartnoma majburiyatlarini qat'iy bajarish tavsiya etilsin.

5. Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (N.Xotamov)ga mazkur xizmatlar uchun belgilangan tariflarning iqtisodiy asoslanganligini doimiy ravishda tahlil qilib borish, xizmatlar tannarxi va moliyaviy samaradorligini o'rganish, budjet intizomiga qat'iy rioya etilishini ta'minlash hamda ushbu sohada ortiqcha xarajatlarning oldini olish bo'yicha aniq choralar ko'rib borish tavsiya etilsin.

6. Tuman davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i (Sh.Berdiyev)ga xizmatlar bo'yicha shakllanadigan barcha tushumlarning to'liq va shaffof hisobga olinishini ta'minlash, tadbirkorlik subyektlari bilan hisob-kitoblarning to'g'ri yuritilishini nazorat qilish, yashirin iqtisodiyotning oldini olish hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan qat'iy nazorat choralari amalga oshirish tavsiya etilsin.

7. Ushbu qaror ijrosini ta'minlash tuman hokimining qurulish, qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'klamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari – tuman obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i (J.Sobirov) qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (A.Qaraboyev) zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 3 (uch) oydan so'ng kuchga kiradi.

Kengash raisi



**ABDIYEV
TOSHQUL
SHAMSIYEVICH**

Xalq deputatlari Navbahor tumani
Kengashining
2026-yil 3-avgustdagi
VII-26-93-5-73-K/26 -son qaroriga
1-ilova

**Navbahor tumanida maishiy chiqindilar, agrotexnik ishlov berishdan
hozil bo'ladigan chiqindilar (daraxt va buta shox-shabballari, barglari) hamda
maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish
uchun to'lov tariflari**

Xizmat ko'rsatiladigan shaxslar	Tip, marka, artikul yoki model raqami	O'lchov birligi	Tarif miqdori (so'm)
Markaziy ko'chalardagi tadbirkorlik subyektlari uchun	Maishiy chiqindilar	m ³	85 500